



UDK:856.357

Durdonaxon ABDUSALOMOVA,

ADU tayanch doktoranti, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

E-mail:abdusalomovadurdona0@gmail.com

DSc, professor A.Abdullayeva taqrizi asosida

FOJIALI VA GARMONIK DUNYOQARASH

Аннотация

Fojia falsafasi insonning o'zligi va tashqi olam o'rtasidagi ziddiyatlar asosida shakllanadi, bu esa ijodkorni passiv emas, balki faol kurashishga undaydi. Ijodkorning psixologiyasida tragik va garmonik dunyoqarashning shakllanishi uning ruhiy holati va tashqi olam bilan munosabatiga bog'liq. Maqola ijodkor psixologiyasi va uning fojiali hamda garmonik dunyoqarashlari haqida. Fojia va garmoniyaning adabiyotdagi o'rni hamda ijodkorning psixologiyasiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ijodkor psixologiyasi, fojiali dunyoqarash, garmonik dunyoqarash, lirika, ayollar she'riyati.

ТРАГИЧЕСКИЙ И ГАРМОНИЧНЫЙ МИРОВОЗЗРЕНИЕ

Аннотация

Философия трагедии формируется на основе конфликтов между личностью человека и внешним миром, что побуждает творца бороться активно, а не пассивно. Формирование трагического и гармоничного мировоззрения в психологии художника зависит от его душевного состояния и его отношений с внешним миром. Статья посвящена творческой психологии, ее трагическим и гармоничным взглядам. Анализируется роль трагедии и гармонии в литературе и влияние на психологию творца.

Ключевые слова: Творческая психология, трагическое мировоззрение, гармоничное мировоззрение, лирика, женская поэзия.

TRAGIC AND HARMONIOUS WORLDVIEW

Annotation

The philosophy of tragedy is formed on the basis of the contradictions between the human self and the external world, which encourages the creator to actively struggle, not passively. The formation of a tragic and harmonious worldview in the psychology of the creator depends on his mental state and relationship with the external world. The article is about the psychology of the creator and his tragic and harmonious worldviews. The role of tragedy and harmony in literature and the impact on the psychology of the creator are analyzed.

Key words: Creative psychology, tragic worldview, harmonious worldview, lyrics, women's poetry.

Kirish. Fojia falsafasi inson va olam o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvidir. Ushbu munosabatlar inqirozi insonning ongida fojiali sur'atda namoyon bo'ladi. O'zligini anglagan, ammo bor imkoniyatlarini tashqi olamga bildirgan olmagan qahramon jamiyat bilan, muhit bilan kelishib keta olmaydi. U qabul qila olmayotgan vaziyat o'zgarish uchun o'z holicha ma'qul kelishi keskinlikni orttira boshlaydi. Natijada esa inson ongida mana shu vaziyat fojiali tus ola boshlaydi. Masalan, to'g'rilik, halollik inson uchun buzib bo'lmas qoida hisoblansa, atrofdagi bosim sabab o'z qoidalariga zid, ushbu muqaddas qadriyatga xilof ish tutsa, uning ongida vaziyat nihoyatda keskinlashib boradi, bunday holat fojia bilan yakunlanishi kutiladi. Biz fojiali deb biluvchi voqealarning har biri alohida ahamiyatga ega, masalan, urushlar, tabiat tomonidan inkor etib bo'lmas halokatlar – tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar inson ongida -o'lim, davolab bo'lmas kasalliklar fojiali deb qaralsa, ommaviy ongda mintaqaviy, milliy yoki sayyoraviy yechimsiz muammolar halokatli vaziyat sifatida baholanadi. Fojia falsafasi shaxsning olam yuki ostida passiv azob chekishini anglatmaydi, aksincha taqdirga qarshi isyon ko'tarib, u bilan kurashayotgan odamning erkin faoliyatini nazarda tutadi, muhim ma'naviy qadriyatlarining o'limiga olib kelgan tashqi va ichki kuchlar bilan to'qnashuvini ham anglatadi. Fojiali muhitda inson o'zining mavjudligiga keskin taftish qilayotgan bir vaziyatda paydo bo'ladi. Mana shu voqealarni o'zida aks ettiruvchi so'z san'ati tragediya janri hisoblanadi. Biroq fojiaiylik atamasini

adabiyotda tragediya janrining o'zi bilangina baholab bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umuman olganda fojiaiylik so'zi nutqimizda har qanday baxtsizlik yoki ofatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Lekin uning adabiyotshunoslik fanidagi istilohi biroz xususiy tushunchani anglatadi. Olamni anglash - ijodkor dunyoqarashi va uning munosabati bilan bog'liq hodisa, rus adabiyotshunoslari (A.Blok, A.Yakobson, Y.Shevchuk) tashqi olamga nisbatan munosabatiga ko'ra ijodkor dunyoqarashini ikki guruhga ajratadilar -tragik hamda garmonik. Garmonik dunyoqarashni to'g'ridan to'g'ri optimizm bilan bog'lash xato. Chunki olamni garmonik anglash - olamda inson muvozanatiga asoslanadi, ya'ni bunday munosabatda bo'lgan ijodkor atrofdagi ziddiyatga ham, taqdiri azalga ham ko'nish, unga qarshi chiqmaslik va uni ma'qullash yo'lini tanlaydi. Rus adabiyotshunosi Anatoliy Yakobsonning fikriga ko'ra, optimizm pessimizmga qarama-qarshi bo'lishi mumkin, lekin tragiklik bilan pessimizmni yonma-yon qo'yib bo'lmaydi[5]. Yakobson Blokning fikriga asoslanadi: [5] "Optimizm oddiy va sodda dunyoqarash hisoblanadi, u olamni bir butun sifatida qabul qilishga asoslanadi, shu sabab uni garmonik dunyoqarash bilan tenglab, tragiklikka qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi"[3]. To'g'ri, tragiklik pessimizmdan, garmoniklik optimizmdan boyishi tabiiy. Ammo tragiklikni to'liq tushkun kechinmadan iborat deb ham bo'lmaydi. Yuliya Shevchuk Anna Ahmatova she'riyatida tragik dunyoqarash haqida yozar ekan, tragiklik tarkibida optimizm hamda

pessimizmning mavjudligini alohida ta'kidlaydi va shoir bir vaqtning o'zida pessimistik matn so'nggida optimistik kayfiyat bera olgan she'rlar muallifi ekanini aytib o'tadi[4]. Ayni mana shu fikr Yakobsonning Pushkin she'riyati haqidagi fikrlarida ham uchraydi [5]. Bundan anglashiladiki, ijodkor fojiaiviylik bilan ham optimistik, ham pessimistik kayfiyatni o'quvchiga yetkazib bera oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijodkor psixologiyasini chuqurroq anglash uchun, fojiali va garmonik dunyoqarashlar va ularning shaxsiyatdagi o'zgarishlarni qanday aks ettirishi, shuningdek, ijodkorning ichki ziddiyatlari va tashqi muhit bilan munosabati kontestual yondashuv hamda psixologik tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Fojiaiviylik- inson o'zligi hamda dunyoning muvozanatiga tayanadi. Shu sabab rus adabiyotshunoslari tragik dunyoqarashni pessimizmdan yuqoriroq o'ringa qo'yadilar, pessimizm hamda optimizm badiiy dunyoqarash elementi sifatida baholanadi. Chunki dunyoni anglash ijodkor uchun to'laonli tushkunlikdan yoki baxtdan iborat bo'la olmaydi. Tragik shoir ham aslini olib qaraganda dunyoni inkor etmaydi, aksincha, u o'zini olam tomonidan rad etilgandek his qiladi va shu sabab unga fojiali munosabatda bo'ladi.

Oson sindim

Yovlar oldida,

Oldimikan qahriga Osmon? [6]

Osmon- butun olam, borliq tushunchasi bilan bog'lanuvchi obraz. YA'ni ijodkor lirik qahramonning yengilish sababini qahramondan taqdirning yuz burishi (osmonning qahriga qolganligi), uni inkor etishi bilan izohlaydi, bu hodisa esa u uchun fojiali voqealigini yuzaga chiqaradi. Hech yengilmagan bahodir uchun jangda mag'lub bo'lishdan-da og'irroq holat mavjud emas. Axir u- Alpomish nomini olgan qahramon. Ma'lumki, fojiaiviylik tragik qahramon vaziyatidan yuzaga chiqadi, ya'ni qahramonning ham alohida belgilari bilan ushbu holat to'liq ochib beriladi. Alpomish-el ishongan, favqulotda alohida kuchga ega obraz (tragik qahramonning asosiy belgilaridan biri). Endi vaziyat shakllana boshlaydi, makrga tayangan zamon u uchun dov tayyorlaydi (Chohlar qazding dovlar oldida, Ey makrga sig'ingan zamon!) , turfa qiyinchiliklar boshiga tushadi (Qonlar yutib, Qonlarga botdim!). Oqibat u oxir qarorni qabul qiladi, ya'ni :

Bu dunyodan

ketmoqligim shart!

Ushbu vaziyatda fojiaiviylikni yuzaga chiqishiga sabab- Osmonning lirik qahramondan qahrilanishi, vosita esa uning jangda yengilishi (oson sinishi) qahramon uchun yechim bu dunyoni tark etish. SHE'r o'zbek xalq dostoni qahramoni Alpomish tilidan yoziladi. Jangda yengilish mag'lubiyat ko'rmagan bahodir uchun fojiali vaziyatni yuzaga keltiradi. Axir u- Alpomish nomini olgan qahramon. Ma'lumki, fojiaiviylik tragik qahramon vaziyatidan yuzaga chiqadi, ya'ni qahramonning alohida belgilari bilan ushbu holat to'liq ochib beriladi. Alpomish-el ishongan, favqulotda alohida kuchga ega obraz (tragik qahramonning asosiy belgilaridan biri). Barchasiga umumiy yechim sifatida berilgan qaror bu dunyodan ketish. Lekin tragik qahramonning kurashuvchanligi, vaziyatni to'g'rilashga urinishi she'rning davomida o'z ifodasini topadi:

Zindoningda men emasman - Or,

Zindoningda nomus ila jon.

Bir O'ziga aytar gapim bor,

Arqoningni tortgil, Qorajon!

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da tragik qahramon xarakteriga quyidagicha izoh beriladi: "Tragik qahramon qarshisida erkin tanlov imkoniyati mavjud- u maqsaddan vozkechishi, oson yo'lni tanlashi mumkin, biroq u bunday qilmaydi, o'zining jisman yoki ma'nau halokatga uchrashi

mumkinligini bilgan holatda ham maqsadidan, e'tiqodidan qaytmaydi. Xuddi sgu asosda tragik qahramonning xarakter kuchi, uning favquloddashaxsligi namoyon bo'ladi." [1,333] Biz yuqorida o'qiganimiz sifatlar zindonda qolgan, yengilgan, yakuni o'lim bo'lsa ham kurashga shoshgan Alpomish xarakterida ochib berilgan.

Nodira Ofoqning Zinnaida Gippius nomli she'ri ijroviy lirikaning go'zal namunalaridan biri hisoblandi. SHE'ning avvali olamga nisbatan isyoniy kechinmalar bilan boshlanadi.

Unut meni, ey dunyo, unut,

Xotirangga yuk bo'lar ismim.[2,13]

Dunyo xotirasiga yuk bo'lish, uning uchun unutilish aslida qahramonning olamdan o'zini ayrib olishi (izolyatsa qilish) bilan teng, avvaliga lirik qahramon o'zi uchun "gunohkor" mavqeyini tanlab oladi, unutilishni o'zi uchun jazo sifatida tanlaydi. (Qadimgi yunon tragediyasi qahramoni Shoh Edip singari tragik qahramon o'z-o'zini jazolaydi.) U kabilar bo'lmasa atrof chamanga aylanadi. Xotirang, oh, faqat gullardan, Mushaklardan bo'lar iborat. Atrofdagi unga mos bo'lmagan muhit sabab olamdan o'zini yakalayotgani yuzaga chiqadi: Tegaramda behisob qurtlar, Qo'ling tegsa, seskanadi et. Shunday vaqt bo'ladi-ki, lirik qahramon uchun barchasi yakunlanadi: Ko'kragimda tinganday soat... Nahot endi muzlasam mutloq? SHE'rda fojiaiviylikning ko'rinishi taqdirdan lirik qahramonning norozi ekanligi, sababi esa unga berilgan og'ir xastalik bilan ifoda etiladi. SHE'r yangi kunning boshlanmasi yakunni ifoda etadi, lekin quyoshning sochib turgan nuri ham qahramon uchun qon kabi ko'rinadi. SHE'r Zinnaidaning fojiali hayqirig'i sifatida jaranglaydi. Ijodkor mavzuni shunchaki tanlab olmaydi, ololmaydi ham, xohlaydimi yoki yo'q, u o'ziga, ko'ngliga, ruhiy holatiga munosib mavzu va obrazga moyillik bildiradi. Zinnaida Gippius favqulotda nozik did sohibasi, ijodkor, adabiyotshunos, shoir sifatida rus adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega. Ammo uning jo'shqin hayot yo'li xastalik sabab yakuni og'ir va ayanchli tus oladi. Bir shoirni to'liq fojiali she'riyat egasi deb atab ham bo'lmaydi, ijodkorning hayot yo'li, shaxsiy tajribasi uning ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ma'lum davr bo'ladi-ki, uning olamga bo'lgan munosabati keskinlashadi yoki aksincha holat yuzaga keladi.

Olamni garmonik anglashga intilgan shoir ruhiy olami tabiat va olam bilan hamohang bo'ladi. U olamning ichida, unda ham tushkun kayfiyat, hayot qiyinchiliklari bo'ladi, lekin u qayg'u va alamga yengilmaydi. U shunchaki tragik shoirdan farqli ravishda bu tushunchalarni hayotning asosi sifatida qabul qilmaydi, bo'lishi tabiiy jarayon ekanini anglagan holatda bundan rohatlana oladi; hayot qiyinchiliklarini ko'rgani holatda uning go'zalligini ham ko'radi. Umid va ijobiy hissiyotlarni tarqatishga intiladi. Farida Afro'z:

Ishqdan boshqa hammasi yolg'on,

Ertaga bugunni topib bo'larmu?!

Haqiqat shundaki shoir hayot mazmunini bugun bilan ko'radi, bugungi on, bugungi his bilan yashab qolmoq kerak, axir uni ertaga topib bo'lmaydi. Bu aynan garmonik shoirlarga xos xususiyat, u hammasini boricha qabul qiladi, hammasi o'z o'rnida bo'lmazligi mumkin, lekin shu holida ham unga ma'qul. Garmonik she'riyat inson ruhining go'zalligini va uning olam bilan uyg'un ekanligini ifodalaydi. Tragik ijodkor psixologiyasi esa insonning o'zligi, qiyinchiliklar va atrofdagi olam bilan munosabati orqali ifodalanadi. Ular odatda ichki ziddiyatlarga, qarama – qarshiliklarga duch keladi. O'z ichki olamlarida ham ikki xil "men" yashaydi. O'zlikni topish, hayotning ma'nosi va taqdir bilan murosasizlik hissi ijod mahsullarida o'z aksini topadi. Halima Ahmad:

Mani yozg'irma, ey qismat,

o'zimdan o'zga kelganman.

Ushbu satrda insonning taqdir hamda o'zligi o'rtasidagi ichki ziddiyatni ko'rish mumkin. Lirik qahramon

o'zini "o'zidan o'zgacha" his qiladi, bu esa insonning ichki noqulayligini va o'zligini yo'qotish hissini aks ettiradi. "Shoirlik baxtmidi yoki baxtsizlik."-deb yozadi ayni shu she'rda shoira, unga yo'l ochib beruvchi ushbu iste'dod ham ko'ngliga shubha-yu gumon beradi, qalblarga borish yo'li ham qayg'ular tomonidan yopib yuboriladi.

Xulosa. Yozuvchi hamda shoirlarning ijodida garmoniklik va tragiklik tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib,

har biri inson his-tuyg'ularining turli qirralarini ifodalaydi. Ushbu jarayon ijodkorning shaxsiy tajribasi va muammolari bilan bog'liq, uni qayta ishlash, ijod jarayonida qayta his qilish ijodkorga hayot mazmunini anglash, o'zligini topish uchun yordam beradi. Uning ichki kechinmalari ijodida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Fojiaiy she'riyat ildizi ijodkor shaxsiyati hamda xarakteriga borib taqaladi.

ADABIYOTLAR

1. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr", 2010. –400 b.
2. Nodira Afoqova. Ko'ngil shevasi.-Toshkent: O'zR FA "Fan", 2006.-13b
3. Блок А. Крушение гуманизма // Блок А. Собр. соч.: В 6 т. – Л.: Худ. лит., 1982. – Т. 4: Очерки. Статьи. Речи. – 1905–1921. – С. 327–347.
4. Шевчук Юлия Вадимовна. Трагическое в лирике А. Ахматовой: Дис. ... канд. филол. наук: Уфа, 2004 247 с.
5. file:///C:/Users/User/Downloads/o-поззии-гармонической-и-трагической-публикация-и-комментарий-с-я-levit%20(1).pdf
6. https://t.me/Zebo_Mirzo/418